

## AUTIZM SPEKTR BUZILISHINING KELIB CHIQISHI, BELGILARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Guliston davlat pedagogika instituti  
o`qituvchisi **Berdiqulova Mahbuba**  
Texnologik ta`lim yo`nalishi  
talabasi Toshboyeva Bahoroy  
+998997636656*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada autizm spektr buzilishining kelib chiqish sabablari ,asosiy belgilari hamda uni aniqlash va korreksiyalashda qo`llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Autizmning biologik va psixologik omillari tahlil qilinib ,ijtimoiy muloqot ,nutq va xulq-atvorda namoyon bo`ladigan xususiyatlar ko`rib chiqilgan. Shuningdek ,erta tashxis, individual psixologik yondashuv va zamonaviy terapevtik usullarning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so`zlar:** autizm, kasallik, zamonaviy yondashuv, sabab, kelib chiqishi, xulosa, fikr.

### **Annotation**

This article discusses the causes, main symptoms, and modern approaches to autism spectrum disorder. The biological and psychological factors of autism are social communication, speech, and modern therapeutic methods is also substantiated.

**Keywords:** communication, social communication, controlling part, controlled part, external information, feedback, verbal, nonverbal

### **Абстрактный**

В данной статье рассматриваются причины, основные симптомы и современные подходы к расстройствам аутистического спектра. Анализируются биологические и психологические факторы аутизма, а также рассматриваются особенности социальной коммуникации, речи и поведения. Обосновывается важность ранней диагностики, индивидуального психологического подхода и современных терапевтических методов.

**Ключевые слова:** аутизм, заболевание, современный подход, причина, происхождение, вывод, мнение.

### **Kirish**

Hozirgi kunda autizm spektr buzilishi zamonaviy psixologiya va tibbiyot sohalarida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Autizm asosan erta bolalik davrida namoyon bo`lib, shaxsning ijtimoiy muloqoti, nutq rivoji hamda xulq-atvorida o`ziga xos cheklanishlar bilan xarakterlanadi.

Autizm spektr buzilishining kelib chiqishi murakkab va ko'p omilli bo'lib, u biologik, genetik hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda izohlanadi. Mazkur buzilishning belgilari individual tarzda namoyon bo'lib, har bir shaxsda turlicha darajada kuzatiladi. Ayniqsa, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va muloqotdagi cheklanishlar autizimli shaxslarning kundalik hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi autizm spektr buzilishining kelib chiqishi, asosiy belgilari va uni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy yondashuvlarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iborat.

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha taxminan har 50 nafar boladan biriga autizm tashxisi qoyilmoqda. Bu o'tgan 10-yilga yaqin vaqt ichida ko'rsatkichlar qariyb to'rt barobar oshganini tasdiqlaydi.

Autizm qanday kasallik? U qanday belgilar bilan nomoyon bo'ladi?

**Autizm** (grekcha “autos”- “o'zim” degan so'z) – bu miyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi nevrologik holat bo'lib, odatda hayotning dastlabki uch yilida namoyon bo'ladi va ijtimoiy muloqot, o'zaro ta'sir hamda cheklangan, takrorlanuvchi xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu holat umrbod davom etishi mumkin, ammo erta aralashuv va maxsus ta'lim orqali bolaning hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Birinchidan, ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi O'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Olimlarning fikricha, autizm kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil log'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimining oshishi, buyrakda bosim oshishi- bularning hammasi autizmni kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishi, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Aspergera sindromi va autizmning kasallik haqida ma'lumot ko'paymoqda. Ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni “g'ayritabiiy bolalar” deyishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyishmoqda.

Ikkinchidan, autizm kasalligiga genetik omillarning ta'sir qilishi ham aytib o'tilgan. Masalan, bir xil egzaklar aka-uka yoki opa-singillarga qaraganda autizmga chalinish ehtimoli ko'proq. Boshqa sabablar: ovqatlanish, emlash, ovqat hazm qilish

tizimidagi o`zgarishlar va vitamin hamda minerallarni o`zlashtira olmaslik bilan bog`liq. Bu bolalarda aqliy zaiflik kabi nevrologik holatlar ham kuzatiladi. Og`ir metallar (qo`rg`oshin) va pestitsidlar kabi atrof-muhit omillari ham ta`sir qiladi. Autizmning deyarli barcha holatlarida kasallik bolalik davrida aniqlanadi. Vaqt o`tishi bilan kasallikning namoyon bo`lishi va alomatlari o`zgarmaydi va rivojlanmaydi, ular shunchaki autizmga chalingan bola balog`at yoshiga yetganida sezila boshlaydi. Ammo kamdan-kam hollarda autizm balog`at yoshida paydo bo`lishi mumkin. Kattalardagi autizm – bu miya tuzilishidagi jiddiy o`zgarishlar bilan birga keladigan ijtimoiy o`zaro ta`sirning izidan chiqishi. Voyaga yetgan kasallik atioik autizm deb ataladi. Ushbu yoshdagi autizmning sabablari ham to`liq tushunilmagan. Kasallikning rivojlanishiga turtki bo`lib xizmat qiladigan tasdiqlangan omillarning to`liq ro`yxati yo`q. Ammo kattalik davrida autizmning paydo bo`lishi tabiati to`g`risida bir qator nazariyalar mavjud. “Ushbu kasallik ko`p hollarda 3 yoshgacha bo`lgan bolalarda paydo bo`ladi. ammo uning ilk belgilarini aksariyat ota-onalar o`z vaqtida payqay olmaydi. Yaqqolroq alomatlar esa 2-3 yoshli bemorlarda ko`zga tashlanish ehtimoli yuqori”, - deydi Shoanvar Shomansurov.

Uchinchidan, autizmning ilk bosqichlarida bolo ta-onaning ayrim harakatlariga javob qaytarmaydi. masalan, uni ismi bilan chaqirganingizda qaramaydi. Atrofdagi odamlar, qarindosh-urug`lar, ularning farzandlari bilan do`stona va iliq munosabatlar o`rnata olmaydi. Kasallikka xos asosiy simptomlardan yana biri bemor bolalarning o`zgalar ko`zlariga tik qaray olmasligidir. Bu kabi vaziyatlarda ular nigohlarini olib qochishga harakat qilishadi. Qolaversa, bunday bemor bolalar ba`zida gaplarni eshitmaydi, u yoki bu o`yinchoq bilan qanday o`ynashni bilmaydi, boshqalarga jilmaymaydi. go`dak 12 oylik bo`lsa-da indamaydi, atrofga qiziqib boqmaydi, 2 yoshida ham gapira olmaydi. Uyqu buzilishlari, tajavvuzkorlikka moyillik va qo`rquv ham autizm belgilari bo`lishi mumkin. Ushbu xastalikka chalingan bolalarga tabiiy amaliyotda taxminan 4 yoshligida aniq tashxis qo`yiladi. Lekin bu ancha kech muddat. Vaholanki, bunday bemorlarda 18-24 oyligidayoq tegishli muolajalar boshlansa, ularning sog`lom hayotga qaytishi oson kichadi. Hozirgi kunda autizm bilan kasallangan bolalarga ijtimoiy moslashuv muassasalarida tibbiy, pedagogik, psixologik va reabilitatsion yordamlar ko`rsatiladi.

To`rtinchidan, hozirgi kunda autizm spektr buzilishlariga ega bolalarni qo`llab-quvvatlashda bir qator zamonaviy psixologik va pedagogik metodlar ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlar bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuziladi. Autizm sindromli bolalarda muloqot ko`nikmalarini shakllantirish uchun barmoq va mayda qo`l matorikasini rivojlantiruvchi nutq o`stirish o`yinlari juda mos keladi. “Barmoq so`zlaganda” nomli o`yinimizda bolalarga qo`shiq aytishni taklif qilamiz. Bunda bolalar individual mashg`ulotlarda defektolog-logoped tomonidan quvnoq she`rlarni kuylash, talaffuz

mobaynida qo`l va barmoqlar bilan harakatlarga taqlid qilishni o`rganadilar. Shu bilan birga, taktil o`yinlar hissiy munosabatni va ko`z bilan aloqa (imo-ishora) ni kuchaytirish mumkin. Masalan, “Kichik oyoqlar yo`l bo`ylab yugurdi” she`rini kuylaganda, defektolog-logoped o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Maxsus PECS kartochkalarini – emotsiyalar bilan bajariladigan barmoq o`yinlari autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirish uchun turtki bo`lishi mumkin. “Barmoq so`zlaganda” o`yini autizm sindromli bolalarda xulq-atvornitarbiyalashga yordam beradi, qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlarining o`zgaruvchanligini normallashtiradi, nutq hamda imitatsiyani rivojlantiradi. qo`shiqlarni tinglash va mazmunni tushunish, ularning ritmini his qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, bolalarning ifodali nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Autizm sindromli bolalarning yana bir sevimli mashg`ulotlridan yana biri konstruksiyalashdir. Muloqot ko`nikmalarini rivojlantirish uchun keng qo`llaniladi. Bunda bolalarga uy qurish, bolalar uchun avtobus, mashina uchun garaj va boshqa turli xil narsalarni o`zlari mustaqil tarzda qurib yashash o`rgatiladi. Ma`lumki, autizmli bola bilan ishlashning muhim jihatlaridan biri bu boshqalar bilan hissiy aloqani shakllantirishdir. Albatta, aloqa o`rnatish jarayonida bolalarning o`zlarining individual muloqot ko`nikmalari shakllanadi. Agar muloqot vaziyati bola uchun qulay va tushunarli shaklda bo`lsa bolada ijobiy taassurot qoldiradi. Bola birinchi navbatda qulay muloqot shaklini olishi juda muhim va shundan keyingina bog`lanishga erishib, o`zaro ta`sirning yanada murakkab shakllarini asta-sekin rivojlantirish mumkin. Bunga boshqalar bilan hissiy aloqani o`rnatishga yordam beradigan o`yinlardan foydalanish yordam beradi, masalan, “Yaxshi kayfiyat”, “Aqlli kubik”, “Qushlar ovozi”, “Bilmasvoy quyon” va shunga o`xshash turli xil qiziqarli va rangli o`yinlar bolalarni o`ziga jalb qiladi va kasalliklarini yengishdagi yo`lda samarali foyda ko`rsatadi.

ABA terapiya ( Applied Behavior Analysis): ABA terapiya- autistik bolalarda ijobiy xatti-harakatlarni mustahkamlash, nojo`ya harakatlarni kamaytirish va muayyan ko`nikmalarni bosqichma-bosqich o`rgatishga asoslangan yondashuvdir. Bu metod aniq va o`lchangan maqsadlar asosida tuzilib, individual o`quv rejalariga asoslanadi. ABA terapiyasi ayniqsa og`ir darajadagi autizm spekt buzilishi bo`lgan bolalarda samarali hisoblanadi.

#### ✚ Ijtimoiy integratsiya va rehabilitatsiya muammolari:

Autistik bolalarning jamiyatga to`laqonli integratsiyalashuvi ularning rivojlanishiga sezilarli darajada ta`sir qiladi. Biroq bu yo`lda bir qancha psixologik, ijtimoiy va institutsional to`siqlar mavjud.

#### ✚ Stigmatizatsiya va oilaviy stress:

Ko`pgina jamiyatlarda autizm kasalligi hali-hanuzgacha noto`g`ri ma`noda tushuniladi. Bu holat stigmatizatsiya, ya`ni bunday bolalarni “boshqacha” deb ajratib qo`yishga olib keladi. Natijada, bolalar va ularning oilalari ijtimoiy izolyatsiyaga

uchrashadi. Ota-onalar esa doimiy stress, aybdorlik hissi va charchoq bilan kurashishga majbur bo`ladi. Bu esa oilaning psixologik salomatligiga doimiy salbiy ta`sir ko`rsatadi.

✚ Ta`lim tizimidagi muammolar:

Ko`plab maktab va bog`chalar autizmga ega bolalar uchun yetarlicha sharoit yaratilmagan. Malakali kadrlarning yetishmasligi va inklyuziv muhitning sustligi ularning ijtimoiylashish imkoniyatlarini cheklaydi.

Autizm spektr buzilishi murakkab va ko`p omilli neyrorivojlanish holati bo`lib, u shaxsning ijtimoiy muloqoti, nutqi, xulq-atvori hamda psixik jarayonlariga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatadi. Autizmning kelib chiqishi asosan genetik, biologik, va atrof-muhit omillarining o`zaro ta`siri buzilishining turli darajada namoyon bo`lishiga sabab bo`ladi. Shu bois autizmni yagona sabab bilan izohlash mumkin emas. Autizm spektr buzilishining belgilari har bir shaxsda turlicha ko`rinishda namoyon bo`lib, ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar, nutq va muloqotdagi cheklanishlar, takroriy xulq-atvor hamda sezgi tizimidagi o`ziga xosliklar bilan xarakterlanadi. Ushbu belgilar bolaning kundalik hayoti, ta`lim jarayoni hamda jamiyatga moslashuviga ma`lum darajada to`sqinlik qiladi. Shu sababli autizmni erta aniqlash va belgilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yondashuvlar autizm spektr buzilishiga ega shaxslarni qo`llab-quvvatlashda muhim o`rin tutadi. Erta tashxis, davrlanish terapiyasi, nutq va til terapiyasi, psixologik hamda pedagogic yondashuvlar orqali autizimli bolalarning muloqot, ijtimoiy moslashuv va mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va individual ta`lim dasturlaridan foydalanish ijobiy natijalarni ta`minlaydi.

Xulosa o`rnida aytib o`tish joizki, autizm spektr buzilishiga ega shaxslarni jamiyatning to`laqonli a`zosi sifatida qabul qilish, ularga nisbatan to`g`ri munosabat va qo`llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimdir. Ilmiy asoslangan yondashuvlar, mutaxassislar va ota-onalar hamkorligi orqali autizimli shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularning imkoniyatlarini to`liq namoyon etishga sharoitlar yaratish mumkin. Shuningdek, oilaviy psixologik yordam tizimini rivojlantirish, ota-onalarni ruhiy jihatdan qo`llab-quvvatlash, ularga autizmga oid zamonaviy yondashuvlar va metodlar haqida turli xildagi ma`lumotlarni taqdim etish ham reabilitatsiyaning ajralmas qismidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi. Bolalarda autizm spektr buzilishlarini aniqlash va davolash bo`yicha metodik qo`llanma. – Toshkent, 2021.
2. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi. Inklyuziv ta`lim asoslari. – Toshkent, 2020.

3. Maxsus pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2018.
4. Defektologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.
6. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2021.
7. Bolalar nevropsixologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.

